O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
VA KOMMUNIKATSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY
NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI
UNIVERSITETI

MINISTRY FOR DEVELOPMENT OF
INFORMATION TECHNOLOGIES
AND COMMUNICATIONS OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

TASHKENT UNIVERSITY OF
INFORMATION TECHNOLOGIES
NAMED AFTER MUHAMMAD
AL-KHWARIZMI

100084, Toshkent sh, Amir Temur ko'chasi, 108-uy.
Tel.:(+998) 71-238-64-89, 71-238-64-15,
E-mail: info@tuit.uz

«26» 12 2022-yil
4142/1-01 -son

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligiga**

Vazirlikning buyruqlari ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida IV chorakda amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ilovaga muvofiq yubormoqdamiz.

Ilova: 22 varaq

**Rektor** **B.Maxkamov**

Ijrochi:L.Jurayev
Tel:712386562

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2022 yil IV choragida yuborilgan buyruqlarning Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU da ijrosi yuzasidan**

**MA'LUMOT**

| | Hujjatlar bandi va belgilangan vazifalar | Bajarish muddati | Ijro uchun mas'ullar | Amalga oshirilgan ishlar |
|---|---|---|---|---|
| **O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 23-sentabrdagi 315-son buyrug'i ijrosi to'g'risida** | | | | |
| **1.** | **Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida an'anaviy ravishda "Yil talabasi" Respublika tanlovini yuqori saviyada o'tkazish to'g'risida**<br>Ilmda va jamoat ishlarida katta yutuqlarga erishgan talabalami qo'llab-quvvallash, ularning o'z iqtidorlarini namoyon etishlariga imkoniyatlar yaratib, rag'batlantirish hamda talabalik nufuzini oshirish maqsadida har yili an'anaviy tarzda "Yil talabasi" Respublika tanlovi (keyingi o'rinlarda - Tanlov) o'tkazilsin.<br>Tanlovni o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom 1-ilovaga, tanlovni o'tkazish sxemasi 2-ilovaga, tanlovni o'tkazish bo'yicha Tashkiliy ishchi guruhi tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.<br>Oliy ta'lim muassasalari rektorlari va filial direktorlari tanlov nizomiga kiritilgan o'zgartirishlardan kelib chiqqan holda 7 ta nominatsiyaning har biri bo'yicha g'olib bo'lgan ishtirokchilar (7 nafar) to'g'risidagi ma'lumotlar yig'majildini belgilangan muddatlarda Tashkiliy qo'mitaga taqdim etsin. | **29.09.2022** | **Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat boshqarmasi boshlig'i Z.Ubaydullayev** | Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 973-son (29.09.2022.y.) buyrug'i chiqarilgan.<br>Tanlovning universitet bosqichiga hujjatlar yig'ish 2022-yil 10-oktabr kuni start berilgan va 20-oktabrgacha davom etgan. https://t.me/tuituz_official/9682.<br>Tanlovni o'tkazish tartibi Nizomga asosan va tanlovni o'tkazish sxemasi Vazirlikning 315-son buyrug'i 2-ilovaga, tanlovni o'tkazish bo'yicha Tashkiliy ishchi guruhi tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlangan.<br>Tanlov komissiyasining 2022-yil 10-noyabrdagi 8-son bayoniga muvofiq g'olib deb topilganlar to'g'risidagi ma'lumotlar yig'ma jildi belgilangan muddatda Tashkiliy qo'mitaga taqdim etildi.<br>Tanlov g'oliblari Vazirlikning 2022-yil 23-sentabrdagi 315-son buyrug'i bilan tasdiqlangan tanlov Nizomiga muvofiq belgilangan tartibda rag'batlantirish yuzasidan universitetning 1204-son (17.11.2022.y.) buyrug'i asosida yilning eng yaxshi talabalari universitetning talabalarni rag'batlantirish fondi hisobidan to'lab berildi va taqdirlash marosimi o'tkazildi (ilova qilinadi). |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 24-sentabrdagi 318-son buyrug'i ijrosi to'g'risida** | | | | |
| **2.** | **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 23-sentabrdagi 522-son qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida**<br>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 23-sentabrdagi "Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko'p kvartirali uy-joy fondini 2022/2023-yillar kuzqish davrida barqaror ishlashiga tayyorlashni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 522-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.<br>Oliy ta'lim muassasalari, akademik litseylar va professional ta'lim muassasalari hamda tashkilotlarning bino va inshootlari, o'quv-laboratoriya, ustaxona, talabalar turar joylari hamda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashiga tayyorlash yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.<br>Bino va inshootlar, o'quv-laboratoriya, ustaxona, talabalar turar joylari hamda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashiga tayyorlash yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish;<br>Oliy ta'lim muassasalari bino va inshootlarining mukammal va joriy ta'mirlash ishlarini joriy yilning 1-oktabriga qadar yakunlash;<br>Ta'lim muassasalarining bino va inshootlari, | **03.10.2022** | **Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor S.Toshmatov** | Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 1030-son (11.10.2022.y.) buyrug'i chiqarilgan.<br>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 23-sentabrdagi "Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko'p kvartirali uy-joy fondini 2022/2023-yillar kuzqish davrida barqaror ishlashiga tayyorlashni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 522-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilingan.<br>Universitetda bino va inshootlari, o'quv-laboratoriya, ustaxona, talabalar turar joylari hamda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashiga tayyorlash yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha chora-tadbirlar rejasi universitetning 2022-yil 11-oktabrdagi 1030-sonli buyrug'i 1-ilovasida tasdiqlangan. Ishchi guruh tarkibi esa mazkur buyruqning 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan (ilova qilinadi).<br>Universitetda bino va inshootlarining mukammal va joriy ta'mirlash ishlari joriy yilda yakuniga yetkazildi (ma'lumotnoma va bayonnoma ilova qilinadi).<br>Universitetda kuz-qish mavsumini betalofat o'tkazish yuzasidan issiqlikni saqlash, elektr energiyasi, gaz, ko'mir va suyuq yoqilg'isi tejamkorligi, ulardan samarali va oqilona foydalanish, tozalikka rioya qilishni targ'ibot qiluvchi eslatma va ma'lumotlarni universitet binolari peshtaxtalariga joylangan hamda joylarda tashviqot va targ'ibot ishlari olib borish davom etmoqda.<br>Universitetning barcha bino va inshootlari, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, qozonxonalarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash ishlarini joriy yilning 1- |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashiga tayyorlashni mahalliy hokimliklarning aloqador va mutasaddi tashkilotlari bilan muntazam muvofiqlashtirish;<br>Ta'lim muassasalarida kuz-qish mavsumini betalofat o'tkazish yuzasidan issiqlikni saqlash, elektr energiyasi, gaz, ko'mir va suyuq yoqilg'isi tejamkorligi, ulardan samarali va oqilona foydalanish, tozalikka rioya qilishni targ'ibot qiluvchi eslatma va ma'lumotlarni ta'lim muassasalari peshtaxtalariga joylab qo'yilishini ta'minlash hamda joylarda tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish;<br>Ta'lim muassasalarining barcha bino va inshootlari, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, qozonxonalarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash ishlarini joriy yilning 1-oktabriga qadar to'liq yakunlash hamda mavsumga tayyorligi to'g'risidagi **mutasaddi tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan dalolatnoma va rahbar tomonidan imzolangan kafolat xatini** vazirlikning Texnik ta'minot va ekspluatatsiya bo'limi (pochta manzili techdep@edu.uz)ga taqdim etish vazifalari yuklatilsin. | | | oktabriga qadar to'liq yakunlash hamda mavsumga tayyorligi to'g'risidagi **mutasaddi tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan dalolatnoma va rahbar tomonidan imzolangan kafolat xati** vazirlikning Texnik ta'minot va ekspluatatsiya bo'limi (pochta manzili techdep@edu.uz)ga taqdim etilgan (ilova qilinadi). |
| **O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 7-oktabrdagi 324-son buyrug'i ijrosi to'g'risida** | | | | |
| **3.** | **Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim shaklini joriy etish to'g'risida**<br>masofaviy ta'lim shaklida o'qitishni Nizom talablariga qat'iy amal qilgan holda tashkil etish;<br>masofaviy ta'lim shaklini joriy etgan oliy ta'lim | **24.10.2022** | **O'quv ishlari bo'yicha prorektor Dj.Sultanov** | Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 1328-son (15.12.2022.y.) buyrug'i chiqarilgan.<br>Nizom talablariga rioya qilgan holda Masofaviy ta'lim markazi tashkil etilgan. 2 xil bakalavriat yo'nalishi tashkil |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | tashkilotlari, zarur hollarda, talabalarga qo‘shimcha qulaylik yaratish maqsadida ular istiqomat qiluvchi hududlarda faoliyat yurituvchi oliy ta’lim tashkilotlari, axborot-resurs markazlari, o‘quv markazlari bilan o‘zaro kelishgan holda ularning axborot-kommunikatsiya infratuzilmasidan talabalar foydalanishi uchun sharoit yaratib berish vazifalari yuklansin.<br>Masofaviy ta’lim shakli joriy etilgan davlat oliy ta’lim muassasalariga Masofaviy ta’limni tashkil etish va rivojlantirish markazini (keying o‘rinlarda-Markaz) tashkil etish huquqi berilganligi;<br>Masofaviy ta’lim shakli asosida kadrlar tayyorlashda bir bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga qabul parametrlari 300 nafar talabadan, bir magistratura mutaxassisligiga 30 nafar talabadan ortiq bo‘lmasligi, bunda:<br>Mazkur talab axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo‘nalishlariga nisbatan tadbiq etilmasligi;<br>Talabalar sonini aniqlashda xorijiy davlat fuqarosi bo‘lgan talabalar hisobga olinmasligi inobatga olinsin.<br>Masofaviy ta’lim shakli joriy etilgan oliy ta’lim muassasalari rektorlari (direktorlari) masofaviy ta’lim shaklini sifatli tashkil etilishini ta’minlashga shaxsan mas’ul hisoblanadi. | | | etilgan, bular: 60610500 - kompyuter injiniringi (“Kompyuter injiniringi”, “AT-Servis”, “Multimedia texnologiyalari”) va 60610600 - dasturiy injiniring yo‘nalishlaridir. Bu yo‘nalishlar bo‘yicha umumiy 434 nafar talaba o‘qishga qabul qilingan (qabul buyruqlari ilova qilinadi). Masofaviy ta’lim shaklida o‘qitish Nizom talablariga qat’iy amal qilgan holda tashkil etilgan.<br>Universitetda masofaviy ta’lim markazi talabalariga qo‘shimcha qulaylik yaratish maqsadida ular istiqomat qiluvchi hududlarda faoliyat yurituvchi filiallar bilan o‘zaro kelishgan holda ularning axborot-kommunikatsiya infratuzilmasidan talabalar foydalanishi uchun sharoit yaratib berilgan. |
| **O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 10-oktabrdagi 325-son buyrug‘i ijrosi to‘g‘risida** | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 4. | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 5-oktabrdagi PQ-386-son qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida**<br>Vazir o‘rinbosarlari, vazirlik tizimidagi bo‘linmalar, tashkilotlar, oliy ta’lim muassasalari va hududiy boshqarmalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Namangan to‘qimachilik sanoati institutini tashkil etish to‘g‘risida” 2022-yil 5-oktabrdagi PQ-386-son qarorini rahbarlik va ijro uchun qabul qilsin. | **24.10.2022** | **O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Dj.Sultanov** | Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 1068-son (19.10.2022.y.) buyrug‘i chiqarilgan.<br>Ma’lumot va ijro uchun qabul qilingan. |
| **O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 10-oktabrdagi 326-son buyrug‘i ijrosi to‘g‘risida** | | | | |
| 5. | **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 30-sentabrdagi 552-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida**<br>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 30-sentabrdagi “Axborot-kutubxona muassasalarida axborot-kutubxona resurslarini hisobga olish, fondlarni saqlash va hisobdan chiqarish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 552-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin. | **28.10.2022** | **O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Dj.Sultanov** | Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 1066-son (19.10.2022.y.) buyrug‘i chiqarilgan.<br>Ma’lumot va ijro uchun qabul qilingan. |
| **O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 11-oktabrdagi 333-son buyrug‘i ijrosi to‘g‘risida** | | | | |
| 6. | **21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kuni munosabati bilan tashkil etiladigan bayram tadbirlariga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish to‘g‘risida**<br>Kasbiy ta’limni rivojlantirish va | **28.10.2022** | **Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor D.Yaxshibayev** | Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 1096-son (24.10.2022.y.) buyrug‘i chiqarilgan.<br>Mazkur buyruq asosida 21 oktabr — “Qadring baland bo‘lsin, ona tilim!” shiori ostida “Davlat tili haqida”gi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari boshliqlari, oliy ta'lim muassasalari rektorlari va filiallar direktorlariga:<br>21-oktabr – O'zbek tili bayrami kuni munosabati bilan akademik litsey, professional va oliy ta'lim muassasalari hamda filiallarda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ilmiy-amaliy anjumanlarning yuqori saviyada o'tkazilishini ta'minlash;<br>O'quvchi va talabalar o'rtasida ona tilimizning buyukligi, boyligi, betakrorligi va jozibasini tarannum etuvchi "Qadring baland bo'lsin, ona tilim!" shiori ostidagi diktant, insholar tanlovlari, viktorinalar tashkil etish;<br>Milliy tilni ulug'lovchi hikmatli so'zlar, fikrlar, mulohazalar, she'rlar, maqollar, matallar, qisqa hikoyalar kabi matnlarning ta'lim muassasasi internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilishini tashkil etish;<br>Professor-o'qituvchilar va talabalarning eng yaxshi maqolalari, intervyularini ommaviy axborot vositalari va ta'lim muassasasi web-saytlarida keng yoritilishini ta'minlash;<br>Markaziy va hududiy ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlar bo'yicha ma'lumotlarni vazirlik Axborot xizmati (press@edu.uz)ga taqdim etib boorish vazifalari yuklatilsin.<br>21-oktabr – O'zbek tili bayrami kuni munosabati bilan ta'lim muassasalari hududini o'zbek tilini ulug'lovchi targ'ibot materiallari, ko'rgazmali tasviriy vositalar bilan bayramona bezash.<br>Toshkent shahridagi **Adiblar xiyoboni**, | | |

| | |
|---|---|
| | Qonun qabul qilinganligining 31 yilligi va "O'zbek tili bayrami kuni"ga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy bayram tadbirlariga tayyorgarlik ko'rildi va yuqori saviyada o'tkazildi.<br>Universitet talabalari o'rtasida ona tilimizning buyukligi, boyligi, betakrorligi va jozibasini tarannum etuvchi "Qadring baland bo'lsin, ona tilim!" shiori ostidagi diktant, insholar tanlovlari, viktorinalar tashkil etildi. https://t.me/tuituz_official/9861 https://t.me/tuituz_official/9851<br>Milliy tilni ulug'lovchi hikmatli so'zlar, fikrlar, mulohazalar, she'rlar, maqollar, matallar, qisqa hikoyalar kabi matnlarning universitet internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirildi. https://t.me/tuituz_official/9849 https://t.me/tuituz_official/9848<br>21-oktabr – O'zbek tili bayrami kuni munosabati bilan Universitet hududi o'zbek tilini ulug'lovchi targ'ibot materiallari, ko'rgazmali tasviriy vositalar bilan bayramona bezatildi.<br>Universitet Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat boshqarmasi boshchiligida bir guruh professor-o'qituvchilar va talaba-yoshlar **Adiblar xiyobonida** buyuk mutafakkir va shoir, o'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy hamda o'zbek adabiy tilining rivojiga hissa qo'shgan Said Ahmad va Saida Zunnunova xotirasiga qo'yilgan haykallar poyiga gul qo'yish marosimlarida ishtirok etishdi.<br>Respublikasi teatrlari va kinoteatrlarida buyuk allomalarimiz siymolari aks ettirilgan spektakllari va Universitetda Kinomatografiya agentligi tomonidan namoyish etilgan hujjatli filmlar namoyishlariga talabalarning tashrifini uyushtirildi.<br>Talaba-yoshlar o'rtasida **"Til bilimdonlari"** |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | viloyatlarda buyuk mutafakkir va shoir, o'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy hamda o'zbek adabiy tilining rivojiga hissa qo'shgan yozuvchi va shoirlar xotirasiga qo'yilgan haykallar poyiga gul qo'yish marosimlarida ishtirok etish.<br>O'zbek tili va adabiyotini yanada rivojlantirish borasidagi ilmiy-amaliy izlanishlar ko'lamini kengaytirish maqsadida respublikasi va xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarni o'tkazish. Jumladan:<br>Universitet huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazida **"Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlari"** mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumanini tashkil qilish va yuqori saviyada o'tkazilishini ta'minlash.<br>Respublikasi teatrlari va kinoteatrlarida buyuk allomalarimiz siymolari aks ettirilgan spektakllar, badiiy va hujjatli filmlar namoyishlariga o'quvchi-talabalarning tashrifini uyushtirish.<br>O'quvchilar va talaba yoshlar o'rtasida **"Til bilimdonlari"** intellectual o'yinlarini tashkil etish.<br>Akademik litsey, professional va oliy ta'lim muassasalarida tilshunos olimlar, ijodkorlar, madaniyat xodimlari, san'atkorlar ishtirokida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari va adabiy-badiiy kechalar tashkil etish.<br>Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda **#ona_tilim_faxrim** kalit so'zi ostida milliy tilni ulug'lovchi hikmatli so'zlar, fikrlar, mulohazalar, she'rlar, maqollar, matallar, qisqa hikoyalar kabi matnlarning ommaviy tarzda joylashtirishini tashkil etish. | | |

| | |
|---|---|
| | intellektual o'yinlarini tashkil etildi.<br>Univeraitet faollar zalida va Talabalar turarjoylarida tilshunos olimlar, ijodkorlar, madaniyat xodimlari, ishtirokida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari va adabiy-badiiy kechalar tashkil etildi..<br>Ona tilimiz nufuzini oshirish va uni keng targ'ib qilish maqsadida Fakultet faollari tomonidan davlat tilining nufuzini oshirishga qaratilgan islohotlar mazmun mohiyatini o'zida aks ettirgan videoroliklar yaratilib va universitet ijtimoiy tarmoqlariga joylashtirildi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Davlat tilining nufuzini oshirishga qaratilgan islohotlar mazmun mohiyatini oʻzida aks ettirgan videoroliklar yaratish va ularni ta'lim muassasasi ijtimoiy tarmoqlariga joylashtirish orqali keng targʻib qilish. | | | |
| **Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 13-oktabrdagi 335-son buyrugʻi ijrosi toʻgʻrisida** | | | | |
| **7.** | **Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-oktabrdagi 582-sonli qarori ijrosi toʻgʻrisida**<br>Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **"Davlat organlari va tashkilotlarining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ish olib boruvchi xodimlari malakasini oshirish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida"**gi 2022-yil 7-oktabrdagi 582-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin. | **24.10.2022** | **Tashkiliy nazorat boshqarmasi boshligʻi L.Joʻrayev** | Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 1078-son (20.10.2022.y.) buyrugʻi chiqarilgan.<br>Ma'lumot va ijro uchun qabul qilingan. |
| **Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 13-oktabrdagi 336-son buyrugʻi ijrosi toʻgʻrisida** | | | | |
| **8.** | **"Uchinchi Oʻzbekiston-Rossiya ta'lim forumi"ni tashkil qilish va oʻtkazish toʻgʻrisida**<br>Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus ta'lim vazirligi, Respublika oliy ta'lim kengashi va Rossiya rektorlari ittifoqining tashabbusi bilan "Uchinchi Oʻzbekiston-Rossiya ta'lim forumi" (keying oʻrinlarda - Forum) **2022-yil 26-27-oktabr kunlari Samarqand shahrida** oʻtkazilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin. | **24.10.2022** | **Ilmiy ishlar va innovatsiyalar boʻyicha prorektor K.Tashev** | Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 1085-son (21.10.2022.y.) buyrugʻi chiqarilgan.<br>Ma'lumot va ijro uchun qabul qilingan. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 13-oktabrdagi 338-son buyrug'i ijrosi to'g'risida** | | | | |
| **9.** | **Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari talaba va o'quvchilarining qishki ta'tilini tashkil etish to'g'risida**<br>Oliy ta'lim muassasalari rektor (direktor)lari bayram kunlari va qishki ta'til davrida talabalar turar joylarida qolayotgan talabalarning xavfsizligi va bo'sh vaqtini unumli o'tkazishi, shuningdek, ovqatlanishi mazkur oliy ta'lim muassasasining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshirish bo'yicha ichki tartib ishlab chiqsin va joriy etsin. | **25.10.2022** | **Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat boshqarmasi boshlig'i Z.Ubaydullayev** | Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 1087-son (21.10.2022.y.) buyrug'i chiqarilgan.<br>Bayram kunlari va qishki ta'til davrida talabalar turar joylarida qolayotgan talabalarning xavfsizligi bo'yicha fakultet dekani, dekan muovini, tyutor va Milliy gvardiya vakillari javobgar etib tayinlandi. Ularning bo'sh vaqtini unumli o'tkazishi bo'yicha tegishli ishlar rejalashtirilgan, shuningdek, kelgusida TTJda qoladigan mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi bo'lgan talabalarning ovqatlanishi universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshirish belgilandi. |
| **O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 22-oktabrdagi 351-son buyrug'i ijrosi to'g'risida** | | | | |
| **10.** | **2022/2023 o'quv yili uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti granti tanlovini o'tkazish to'g'risida**<br>Oliy ta'lim muassasalari rektorlari va direktorlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti granti tanloviga talabgor talabalarning **2022-yil 15-noyabrga qadar** Davlat test markazida o'tkaziladigan test sinovlarida ishtirok etishlarini ta'minlasin.<br>Bunda, talabgor va mas'ul rahbarlarning xizmat safari bilan bog'liq xarajatlari oliy ta'lim muassasasining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplanishi belgilansin. | **01.11.2022** | **Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish bo'limi boshlig'i G.Axmedjanova** | Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 1117-son (28.10.2022.y.) buyrug'i chiqarilgan.<br>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti granti tanlovida talabgor talabalar Jovliev Abbosjon, Qurbonmurodov Diyorbek, Mustofoeva Malika va Shoimova Sarvinozning **2022-yil 15-noyabr kuni soat 14-00 da** Davlat test markazida o'tkaziladigan test sinovlarida ishtiroklari ta'minlandi.<br>Talabgorlarning o'qishi va mas'ul rahbarning ish joyi Toshkent shahrida bo'lganligi sababli xizmat safari bilan bog'liq xarajatlar qilinmadi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 28-oktabrdagi 355-son buyrug'i ijrosi to'g'risida** | | | | |
| **11.** | **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 24-oktabrdagi 616-son qarori ijrosi to'g'risida**<br>Oliy ta'lim muassasalari rahbarlariga **har yili 20-iyulga qadar** "Oliy ta'lim a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlash bo'yicha nomzodlarni Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga taqdim etsin.<br>Tizimida o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari bo'lgan oliy ta'lim muassasalari hamda Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari **har yili 10-iyulga qadar** o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalaridan "O'rta maxsus va professional ta'lim a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlash bo'yicha takliflarni ko'rib chiqsin hamda **har yili 20-iyulga qadar** Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga taqdim etsin. | **10.11.2022** | **HR bo'limi boshlig'i Z.Begmatova** | Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 1178-son (08.11.2022.y.) buyrug'i chiqarilgan.<br>Davlat va idoraviy ko'krak nishonlari uchun nomzodlar 2023-yildan boshlab belgilangan muddatgacha taqdim etilishi ko'zda tutilgan. "Oliy ta'lim a'lochisi" hamda "O'rta maxsus va professional ta'lim a'lochisi" ko'krak nishonlari 1-oktabr O'qituvchi va murabbiylar kuni arafasida topshirilishi ma'lumot uchun qabul qilingan.<br>2023-yildan boshlab universitetda "Oliy ta'lim a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlash uchun nomzodlarni har yili 20-iyulga qadar, "O'rta maxsus va professional ta'lim a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlash uchun nomzodlar esa har yili 10-iyulga qadar Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga taqdim etilishi nazoratga olingan va ma'lumot va ijro uchun qabul qilingan. |
| | **O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 11-noyabrdagi 371-son buyrug'i ijrosi to'g'risida** | | | |
| **12.** | **Axborot-kutubxona faoliyatiga oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida**<br>Oliy ta'lim muassasalari rektorlari va filiallar direktorlari zimmasiga Axborot-resurs markazlari faoliyatini namunaviy nizom asosida tashkil etish va bir oy muddatda tasarrufidagi akademik litseylar kutubxonasi faoliyatiga oid nizom ishlab chiqish hamda tasdiqlash vazifalari yuklatilsin. | **10.12.2022** | **O'quv ishlari bo'yicha prorektor Dj.Sultanov** | Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 1300-son (09.12.2022.y.) buyrug'i chiqarilgan.<br>Mazkur buyruq asosida universitet va universitet tasarrufidagi akademik litsey kutubxonasi faoliyatiga oid nizom ishlab chiqilgan (ilova qilinadi). |

| O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 11-noyabrdagi 373-son buyrug'i ijrosi to'g'risida | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **13.** | **Oliy ta'lim muassasalari psixologlari faoliyatini yanada takomillashtirish ularning malaka oshirish kurslarini tashkil etish to'g'risida**<br>Oliy ta'lim muassasalari rektorlari hamda filiallar direktorlari bir oy muddatda:<br>Ta'lim muassasasidagi vacant psixolog o'rinlari to'ldirish choralarini ko'rish;<br>Psixologlar faoliyatini baholash mezonlari asosida baholab, ularga ustama haq to'lash tartibini joriy etish;<br>Oliy ta'lim muassasalari (filiallari) jamoa shartnomalarida psixologning mehnat ta'tilini uzaytirish bo'yicha qo'shimchalar kiritish masalasini o'rganib chiqish va lozim deb topilgan taqdirda mazkur o'zgartirishlarni kiritish;<br>Psixologlar uchun barcha qulayliklarga ega bo'lgan alohida xona ajratilishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.<br>Oliy ta'lim muassasalari rektorlari hamda filiallar direktorlari:<br>Ilova bilan tasdiqlangan tinglovchilarning ishtirok etishlarini nazoratga olish;<br>Tasdiqlangan xarajatlar smetasiga muvofiq malaka oshirish kursi uchun to'lovlarni shartnoma asosida O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmoq (mintaqaviy) Markazining hisob raqamiga o'z vaqtida o'tkazishni amalga oshirish;<br>Uch yoshga to'lmagan yosh bolasi bo'lgan xotin-qizlar, nogironligi bo'lgan hamda boshqa | **21.11.2022** | **Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor D.Yaxshibayev** | Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 1217-son (18.11.2022.y.) buyrug'i chiqarilgan.<br>Psixologlar faoliyatini baholash mezonlari asosida baholab, ularga haq to'lash tartibi joriy etildi.<br>Psixologlar uchun barcha qulayliklarga ega bo'lgan alohida xonalar ajratilgan.<br>Mazkur buyruq ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to'risida Vazirlikka Universitetning 9.12.2022.y. 3963/14-01-son xati orqali ma'lumotlar taqdim qilindi (ilova qilinadi).<br>Universitet psixolog xodimi fevral oyida malaka oshirishga borishi sababli O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmoq (mintaqaviy) Markazining hisob raqamiga to'lovlar 2023-yilning yanvar oyida o'tkazib berilishiga kelishilgan.<br>Uch yoshga to'lmagan yosh bolasi bo'lgan xotin-qizlar, nogironligi bo'lgan hamda boshqa uzrli sabablar bilan malaka oshirish kurslarida ishtirok eta olmagan psixologlar universitet rektorining tavsiyasi asosida, onlayn tarzda tashkil etiladigan malaka oshirish kurslariga jalb etilishi rejalashtirilgan. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | uzrli sabablar bilan malaka oshirish kurslarida ishtirok eta olmagan psixologlar oliy ta'lim muassasasi rektorining (direktori) tavsiyasi asosida, onlayn tarzda tashkil etiladigan malaka oshirish kurslariga jalb etish choralarini ko'rish vazifalari yuklatilsin. | | | |
| **O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 24-noyabrdagi 382-son buyrug'i ijrosi to'g'risida** | | | | |
